


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

Nº 1230
2023 yil «07» 11

"TASDIQLAYMAN"

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
rektori  prof.R.Xalmuradov
«07» 2023 yil

Dushenbe, 07.07.2023. Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport fakulteti va fanlar
takomil "Landshaft dizayni va inter'er" kafedrasidansiz.

Tarjichilar:

Zaridoy №: Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport fakulteti va fanlar
takomil "Landshaft dizayni" kafedrasidansiz.

60210400 – Dizayn (landshaft dizayni)

"Kompozitsiya" va "Chizmachilik"
fanlaridan

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI, BAHOLASH MEZONI

Samarqand- 2023

Dastur Samarqand davlar universiteti Kengashining 2023 yil ____-iyuldag'i
№____ sonli yig'ili shida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar:

Mullajonova Nigina Jamolovna – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati va san'at fakulteti “San'atshunoslik” kafedrasi mudiri dotsent.

Drobchenko Natal'ya Valerevna - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti “Landshaft dizayni va inter'er” kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

Zaxidov S.X - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati va san'at fakulteti “San'atshunoslik” kafedrasi, t.f.n., professori.

Saloxiddinova D.Z. - Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti “Arxitektura nazariyasi va tarixi” kafedrasi dotsenti

1. KIRISH

Alovida iqtidor talab etiladigan 60210400 – *Dizayn (landshaft dizayni)* bakalavr ta’lim yo‘nalishi uchun imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alovida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018 yil 27 iyuldaggi 588-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi majlisining 2023 yil 26 iyuldaggi 2-son bayoni asosida tayyorlangan.

60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) – san’at sohasiga oid ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, arxitekturaviy va badiiy loyihalash usullarini ishlab chiqish, bog‘ va parklarni loyihalash jarayonida sintez va optimizasiya qilish, ishlab chiqarish bilan bog‘lash, dizayn mahsulotining estetik va psixologik jarayonini o‘rganish va qurilish konstruksiyalarning asosiylarini o‘rganish va qayta ishlash, jamaot va turar joy binolarining interyerini loyihalash, loyihalash firmalarining tashkiliy faoliyatlarida, tadqiqot jarayonida ishtirok etish, vazifasiga ko‘ra bino va inshootlarning interyer-ekstryerlarini, arxitekturaviy-fazoviy muhitini, landshaft dizayn obyektlarini loyihalash, professional ta’lim tizimi muassasalarida pedagogik faoliyat, shuningdek ilmiy-tadqiqot faoliyati, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida san’at sohasi ta’lim yo‘nalishlariga mos kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

60210400 – Dizayn (landshaft dizayni) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi abituriyentlar uchun ijodiy kirish imtihonlari bo‘yicha dastur va baholash mezonlari (baholash uchun imtihon komissiyasi tayinlanadi, uning tarkibiga mutaxassislik o‘qituvchilari kiradi) 2 ta fan asosida shakllanrilgan. Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan mazmun quyida bataysil bayon etilgan.

2. Kasbiy (ijodiy) imtihonning maqsad va vazifalari

Kasbiy (ijodiy) imtihonning maqsadi abiturenlarning komozitsiya yechimi, tus, buyumlarning o‘zaro nisbatlari, soya-yorug‘ qonunlarini ijodiy jarayonda to‘g‘ri qo‘llay olish va detallarni tushuna bilish hamda fazoviy tasavvurni qo‘llay olish qobiliyatlarini aniqlash.

Yuqoridaq maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

- natyurmort kompozitsiyasini qalamtasvirda to‘g‘ri tuzish;
- natyurmort kompozitsiyasini qog‘oz formatiga nisbatan to‘g‘ri joylashtirish;
- ufq chizig‘ini to‘g‘ri topish;
- narsa va buyumlarning o‘zaro nisbatlari to‘g‘ri topish;
- tus bilan ishlashda soya va yorig‘lik qonuniyatlariga amal qilish;
- naturani ishlashda tus munosabatlari to‘g‘ri topish;
- chiziqli perspektiva qoidalariga amal qilish;
- narsa va buyumlar fakturasini to‘g‘ri ifodalash;
- chizma bajarishda detal chizmasini qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtirish, masshtabni to‘g‘ri tanlash;
- chizma chizish qoidalar binoan yetishmagan proyeksiyalarini topa olishi;

- ortogonal proyeksiyalarda zaruriy qirqimlarni to‘g‘ri bajarish;
- fazoviy tasovvurlarga tayangan holda detallarning yaqqol tasvirini qurish va qirqimini bajarish.
- standartlar asosida o‘lchamlar qo‘yishi va chiziq turlariga amal qilish;

3. Abiturient bilimiga qo‘yiladigan talablar

“Kompozitsiya” fani bo‘yicha:

- abiturient natyurmort kompozitsiyasini qalamtasvirda to‘g‘ri tuzishni bilishi;
- natyurmort kompozitsiyasini qog‘oz yuzasiga nisbatan to‘g‘ri joylashtira olishi;
- ufq chizig‘ini to‘g‘ri topishi;
- narsa va buyumlarning o‘zaro nisbatlari to‘g‘ri aniqlay olishi;
- tus bilan ishslashda soya va yorig‘lik qonuniyatlariga amal qilishi;
- naturani ishslashda tus munosabatlari to‘g‘ri topishi;
- chiziqli perspektiva qoidalariga to‘g‘ri amal qila olishi;
- narsa va buyumlar fakturasini to‘g‘ri ifodalay olishi;
- abiturient kompozitsiya asoslari va qalamtasvir qonuniyatlarini orqali o‘zining bilimini, dunyoqarashini, badiiy san’atga bo‘lgan qiziqishini qalamtasvir vositalaridan foydalanib ko‘rsata olishi;
- berilgan naturaga tegishli bo‘lgan buyumlarni badiiy tasvirlashi;
- qalamtasvir texnologiyasini o‘zlashtirish va bajarilayotgan vazifada namoish etish kabi talablarni bajarishi lozim.

“Chizmachilik” fani bo‘yicha:

- grafik qalam, burchakli, gradusli, yoysimon chizg‘ichlar, sirkul va boshqa chizmachilik asboblaridan foydalana olishni bilishi;
- amaliyotda egallangan bilimlari asosda chizmachilik anjomlarini qo‘llashni bilishi;
- geometrik shakllarning proyeksiylash qonunlari, oldidan va ustidan ko‘rinishlar asosida detalning uchinchi ko‘rinishini topish, aksonometrik proeksiyalar, chizmani bajarish haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- o‘lcham qo‘yish qoidalarini bilishi va rioya etishi;
- masshtablar, chiziq turlariga to‘g‘ri amal qilishi;
- detallar tasvirining geometrik asoslari, ko‘rinishlar, qirqimlar, chizmalarda yozuvlar va belgilashlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- nafaqat ko‘rinadigan, balki detallarning ko‘rinmas qismini tasvirlay olishi;
- ijodiy fikrlash va ko‘rish qobiliyati orqali chizish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

4. “Kompozitsiya” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash mezonlari.

Vazifa: Berilgan turli geometrik jsmaldan natyurmort kompozitsiyasini tuzish. Natyurmort kompozitsiyasini qalamtasvirda bajarish.

Kompozitsiya A3 formatdagи qog‘ozga qalamtasvir vositalaridan foydalangan holda bajariladi.

Vazifa: 4 (to'rt) akademik soat (180 minut) davomida bajariladi.

KOMPOZITSIYA.

Nº	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
	Kompozitsiya fani uchun amaliy ish	Jami ball 0-78
1	Natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tuzilganligi.	0-8,0
2	Natyurmort kompozitsiyasini qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtirilganli.	0-7,0
3	Natyurmort kompozitsiyasida geometrik jsmlarning konsturuktiv qurilmasi to'g'ri topilganligi.	0-7,0
4	Geometrik jsmlarning o'zaro nisbati va tayanch nuqtalari to'g'ri topilganligi	0-7,0
5	Narsalarning tekisligi to'g'ri aniqlangan	0-7,0
6	Natyurmort kompozitsiyasidagi geometrik jsmlarning hajmlari to'g'ri aks ettirilganligi.	0-7,0
7	Chiziqli perspektiva qonuniyatlariga to'g'ri rioya qilinganligi	0-7,0
8	Natyurmort kompozitsiyasidagi geometrik jsmlarning soya va yorug'lar to'g'ri aks ettirilganligi.	0-7,0
9	Natyurmort kompozitsiyasida geometrik jsmlarning fakturasi (gips, mato) to'g'ri topilganligi.	0-7,0
10	Ishning umumlashtirilganligi.	0-7,0
11	Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilganligi.	0-7,0
Jami:		0-78

5. "Chizmachilik" fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash mezonlari.

Vazifa: Detalning ikki proyeksiyasiga ko'ra yetishmovchi proyeksiyasini topish. Detalning aksonometriyasi bajarish va zaruriy qirqimlar berish.

Chizma A3 formatdagi qog'ozga bajariladi.

Vazifa: 4 (to'rt) akademik soat (180 minut) davomida bajariladi.

CHIZMACHILIK.

Nº	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
	Chizmachilik fani uchun amaliy ish	Jami ball

		0-78
1	Chizma bajarishda detal chizmasini qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtirilganligi	0-7,0
2	Chizmada masshtabning to'g'ri tanlanganligi.	0-7,0
3	Berilgan detalning ikki proyeksiyasi to'g'ri ko'chirilganligi.	0-7,0
4	Berilgan detalning yetishmovchi proyeksiyasi to'g'ri topilganligi.	0-7,0
5	Ortogonal proyeksiyada qirqim to'g'ri tanlanganligi va bajarilganligi.	0-7,0
6	Berilgan detalning aksometriyasi to'g'r boshlanganligi.	0-7,0
7	Berilgan detalning aksometriyasi to'g'r bajarilganligi.	0-7,0
8	Berilgan detalning aksometriyasida qirqim to'g'ri bajarilganligi.	0-8,0
9	Chizmada chiziq turlariga amal qilinganligi.	0-7,0
10	Chizmada o'lcham qo'yish qoidalariga rioya qilinganligi.	0-7,0
11	Chizma standart asosida bajarilganligi va tugallanganligi.	0-7,0
Jami:		0-78

6. Kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriladigan fanlar majmuasi

T/r	Ta'lim yo'nalishi kodi	Bakalavria t ta'lim yo'nalishi nomi	1-fan	2-fan
1.	60210400	Dizayn (landshaft dizayni)	Kompozitsiya	Chizmachilik


7. Apellyatsiya tartibi

To'plagan balidan norozi abiturient kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat ichida apellyastiya komissiyasiga murojaat etish huquqiga ega. Appellyatsiya faqat abiturientning o'z ishi natijalari bo'yicha ko'rib chiqiladi.


USLUBIY KO'RSATMALARDAN NAMUNALAR KOMPOZITSIYA FANI

Vazifa: Berilgan turli geometrik jismlardan natyurmort kompozitsiyasini tuzish.
Natyurmort kompozitsiyasini qalamtasvirda bajarish.


Namunalar:




1-namuna



2-namuna



3-namuna




4-namuna.


USLUBIY KO'RSATMALARDAN NAMUNALAR CHIZMACHILIK FANI

Vazifa: Detalning ikki proyeksiyasiga ko'ra yetishmovchi proyeksiyasini topish. Detalning aksonometriyasi bajarish va zaruriy qirqimlar berish.

Namunalar:



1-namuna.



2-namuna.